"UzGasTrade" AJning
2024-yil -dekabrdagi -sonli xatiga ilova

**2024-yil davomida UzGasTrade AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**
**HISOBOT**

| T/r | Belgilangan vazifalar | Amalga oshirilgan ishlar |
|---|---|---|
| 1 | Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi. | Jamiyatning joriy yil 4 yanvar kuni bilan 1-um son buyrug'i bilan 2024 yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" qabul qilingan. (ilova qilinadi) |
| 2 | Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi. | Jamiyatning 12.06.2023 yildagi 17-UM son buyrug'i bilan komplaens bo'yicha (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilgan. (buyruq ilova qiliadi) Izoh: Hozirgi vaqtda mas'ul xodim 40-sht buyruq bilan o'zgargan. |
| 3 | Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi. | https://uzgastrade.uz/company/policy/<br>ishonch telefon raqami: 55-506-05-06 (227) |
| 4 | Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi. | Jamiyatning departament boshqarma va bo'lim boshliqlari hamda hududiy vakillar bilan birgalikda Raqobat to'g'risidagi qonunga kiritilgan o'zgarishlar to'g'risida o'quv seminar joriy yil 8 noyabr kunida tashkillashtirildi va bayon bilan tasdiqlandi |
| 5 | Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi. | Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari aniqlanmagan. |
| 6 | Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi. | Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi narxlarni tasdiqlaganda e'lon qilishda 15 kunlik muddati o'tib ketishi havfi yuqoriligi. |
| 7 | Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi. | Jamiyatning faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilgan va raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlanmagan. |
| 8 | Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi. | O'zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining (Raqobat qo'mitasi) 2023 yil 15 dekabrdagi 5094/02-19-sonli murojaatiga asosan O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi 2023 yil 3 iyuldagi O'RQ-850-son Qonuni, "Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari", O'zbekiston Respublikasi "Metrologiya to'g'risida"gi Qonuni, "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi" ("O'zstandart") va amaldagi qonun hujjatlarida hamda me'yoriy texnik reglamentlardagi belgilangan talablar asosida "Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga sotish shartnomasi" namunaviy loyihasi (namunaviy shartnoma) ishlab chiqildi.<br>Ushbu namunaviy shartnomada iste'molchilarga tabiiy gaz sotish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar to'laqonli ko'rib chiqilib, iste'molchilarga tabiiy gaz hajmlari qisqartirilishi, kam hajmda yetkazib berilishi, transport xizmati ko'rsatuvchi operatordagi favqulodda vaziyatlar, tabiiy gaz yetkazib beruvchilar tomonidan resurslar yetarlicha yetkazib berilmagan vaziyatda iste'molchilar bilan kelib chiqadigan nizolar atroflicha boshqarma tomonidan oldingi yillardagi amaldagi holatlar o'rganilib, Jamiyatga yetkaziladigan moddiy zararlar va moliyaviy jarimalarni oldini olish yuzasidan takliflar kiritildi. Bunda Sotuvchining huquklari va majburiyatlari, iste'molchining huquqlari va majburiyatlari shartnomada sodda va tushunarli tahrirlarda ifoda qilindi.<br>Joriy yilning 26 fevral sanasida namunaviy shartnoma O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, "O'zenergoinspeksiya" va Raqobat qo'mitasi tomonidan kelishilishi va tasdiqlanishiga erishildi (Raqobat qo'mitasining 2024 yilning 26 fevral sanasida 38-XDFU/02-19-sonli xati). |
| 9 | Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi. | O'zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazining 2024 yil 25 sentabrdagi 106/01-07-sonli xatiga asosan Jamiyat xodimlari malakalari oshirilib sertifikatlar oldi |
| 10 | Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi. | Test sinovlari jamiyatning departament boshqarma va bo'lim boshliqlari va xodimlari o'rtasida Raqobat to'g'risidagi qonun mavzusida jami 30 ta xodimdan olindi. Testdan deyarli barcha xodimlar a'lo ballarni yeg'di. |
| 11 | Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar. | Monopoliyaga qarshi komplayens ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar 2024 yilda bo'lmagan. |